



## TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

---



---

2022 - yil 2 - noyabr

234-10-139-F/22

Qibray tuman hokimligi

### **Mablag‘ ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-soni qarori hamda tuman hokimi o‘rinbosari J.Tulyaganovning bildirgisini inobatga olib,

1. Qibray tumanı mahalliy budgetining 2022-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejäsining orttirib bajarilgan qismi hisobidan tumanimizda "Obod qishloq" dasturi doirasida mahallalarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun Toshkent viloyati "Obod qishloq" (h/r:301821860274010000000000002, STIR:200 838 399) jamg‘armasiga tuman hududida joylashgan Taraqqiy mahalla fuqoralar yig‘inining ko‘chasiga piyodalar yo‘laklarini joriy ta’mirlash xarajatlari uchun ishlab chiqilgan loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlariga asosan **121 011,0 (bir yuz yigirma bir million o‘n bir) ming so‘m** hamda Birlik mahalla fuqoralar yig‘ini ko‘chasiga tungi yoritgich ko‘cha chiroqlari xarajatlari uchun ishlab chiqilgan loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlariga asosan **132 294,0 (bir yuz o‘ttiz ikki million ikki yuz to‘qson to‘rt) ming so‘m** jami **253 305,0 (ikki yuz ellik uch million uch yuz besh) ming so‘m** mablag‘lar yo‘naltirilsin.

2. Ushbu xarajat uchun mablag‘ ajratish Toshkent viloyati Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining navbatdagi sessiyasiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri (**I.Xolmurodov**) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (**J.Usmonxo‘jaev**) ajratilgan mablag‘larni qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (**A.Ilesbaeva**) ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda Toshkent viloyati "Obod qishloq" jamg‘armasiga o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (**T.Tashxodjayev**) amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni tuman hokimligining **rasmiy veb saytida** joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rribosari X.Bekmurodov va tuman hokimi o‘rribosari J.Tulyaganov zimmalariga yuklatilsin.

Qibray tumani hokimi



M.Mirkasimov